QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.201

TOPIK II O‘QISH TOPSHIRIQLARINI O‘RGATISHDA O‘QISH STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xajiyev Shohzodbek Bayramboyevich
Ma'mun universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish(koreys tili) òqituvchisi
shohzodbekxajiyev1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatishda o‘qish strategiyalaridan foydalanish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda o‘qish strategiyalarining asosiy xususiyatlari, TOPIK II o‘qish matnlari va topshiriqlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qishdan oldingi tayyorgarlik, matnni o‘qish, topshiriq turiga mos strategiyani tanlash hamda javobni tekshirish bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli metodik model taklif qilinadi. Mazkur model TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatishda o‘qish strategiyalaridan izchil foydalanish uchun amaliy metodik yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: TOPIK II, o‘qish (읽기), o‘qish strategiyasi, kognitiv strategiya, metakognitiv strategiya, o‘qish topshiriqlari, metodik model.

METHODOLOGY OF USING READING STRATEGIES IN TEACHING TOPIK II READING TASKS

Abstract. This article examines the use of reading strategies in teaching TOPIK II reading tasks. The study analyzes the main characteristics of reading strategies, as well as the specific features of TOPIK II reading texts and tasks. Furthermore, a four-stage methodological model is proposed, consisting of pre-reading preparation, text reading, selection of an appropriate strategy according to the task type, and answer verification. This model is recommended as a practical methodological approach for the systematic application of reading strategies in teaching TOPIK II reading tasks.

Keywords: TOPIK II, reading (읽기), reading strategy, cognitive strategy, metacognitive strategy, reading tasks, methodological model.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТРАТЕГИЙ ЧТЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЗАДАНИЯМ ПО ЧТЕНИЮ TOPIK II

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос использования стратегий чтения при обучении выполнению заданий по чтению TOPIK II. В исследовании анализируются основные характеристики стратегий чтения, а также специфические

особенности текстов и заданий раздела чтения TOPIK II. Кроме того, предлагается четырёхэтапная методическая модель, включающая предварительную подготовку к чтению, чтение текста, выбор стратегии в соответствии с типом задания и проверку ответа. Данная модель рекомендуется в качестве практического методического подхода для последовательного использования стратегий чтения при обучении выполнению заданий TOPIK II.

Ключевые слова: TOPIK II, чтение (읽기), стратегия чтения, когнитивная стратегия, метакогнитивная стратегия, задания по чтению, методическая модель.

KIRISH

TOPIK II koreys tilini o‘rganuvchilarning koreys tilini egallash darajasini baholashga xizmat qiluvchi muhim til imtihonlaridan biridir. Ayniqsa, o‘qish (읽기) bo‘limida turli mavzularga oid va nisbatan murakkab tuzilishga ega matnlar asosida topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun faqat lug‘at boyligi va grammatik bilimlarni egallashning o‘zi yetarli emas. Matnni tez va to‘g‘ri tushunish, asosiy mazmunni aniqlash, muhim ma’lumotlarni ajratib olish hamda savol turiga mos o‘qish strategiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. TOPIK II o‘qish topshiriqlarining murakkabligi, avvalo, matnlarda qo‘llanadigan lug‘at va gap tuzilmalari bilan bog‘liq. 신정하 (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda TOPIK II o‘qish matnlaridagi lug‘at darajasi koreys tili darsliklaridagi matnlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi ko‘rsatilgan. Bu holat o‘quvchidan nafaqat alohida so‘zlarning ma’nosini bilishni, balki matn mazmunini kontekst asosida tushunishni ham talab qiladi. Shuningdek, 백재파 (2017) koreys tilini o‘qitishda o‘qish strategiyalaridan foydalanish masalasini tahlil qilib, strategik yondashuvning o‘qish ta’limidagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, TOPIK II o‘qish bo‘limidagi matnlar mazmuni va tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘lib, topshiriqlarni bajarishda qo‘llaniladigan o‘qish strategiyalari ham matn va savol turiga mos ravishda tanlanishi lozim. 서월아 (2023) TOPIK o‘qish matnlarini axborot, ifoda va hissiy mazmundagi matnlar kabi turlarga ajratib, ushbu matnlarning mazmuniy va funksional xususiyatlari turlicha ekanligini ko‘rsatgan. Shuningdek, 임채훈 (2019) TOPIK II o‘qish bo‘limidagi asosiy mazmunni aniqlash topshiriqlarini tahlil qilib, matn turi va asosiy mazmunni aniqlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Shuning uchun TOPIK II o‘qishni o‘rgatishda barcha matnlarga bir xil yondashishdan ko‘ra, matnning xususiyati va topshiriq talabidan kelib chiqib tegishli o‘qish strategiyasini tanlash muhimdir.

Yuqoridagi tadqiqotlar koreys tilini o‘qitishda o‘qish strategiyalarining ahamiyati, TOPIK II o‘qish matnlarining xususiyatlari hamda matn va topshiriq turiga mos strategiyalardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu tadqiqotlarda o‘qish strategiyalari ko‘proq alohida jihatlar asosida, masalan, matn qiyinligi, matn turi yoki muayyan topshiriqni bajarish usuli nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Shu sababli TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatish

jarayonida strategiyalarni o‘qishdan oldingi tayyorgarlik, matnni o‘qish jarayoni va topshiriqni bajarish bosqichlari bilan bog‘lab, izchil metodik tizim sifatida ko‘rib chiqish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatishda o‘qish strategiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Buning uchun avvalo o‘qish strategiyalarining asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi, so‘ng TOPIK II o‘qish topshiriqlarining xususiyatlari tahlil qilinadi. Shundan kelib chiqib, o‘qishdan oldingi tayyorgarlik, matnni o‘qish jarayoni va topshiriqni bajarish bosqichlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan strategiyalar tizimlashtiriladi hamda TOPIK II o‘qishni o‘rgatish uchun amaliy metodik model taklif qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

O‘qish strategiyasi - matnni tushunish va undan kerakli ma’lumotlarni ongli ravishda ajratib olish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuasidir. O‘qish jarayonida matndagi barcha ma’lumotlarni bir xil darajada tahlil qilish o‘rniga, o‘qish maqsadini aniqlash va shu maqsadga muvofiq kerakli ma’lumotlarni ajratib olish muhimdir.

O‘qish strategiyalari o‘quvchiga matnning asosiy mazmunini anglash, muhim ma’lumotlarni aniqlash va topshiriq talabiga mos ravishda matnni tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, TOPIK II o‘qish bo‘limida turli mavzu va tuzilishga ega matnlar berilishi sababli, matnni qanday o‘qish va qaysi ma’lumotlarga e’tibor qaratishni oldindan belgilash muhim ahamiyatga ega. O‘qish strategiyalari turli xil bo‘lib, ularni umumiy jihatdan kognitiv va metakognitiv strategiyalarga ajratish mumkin. Kognitiv strategiya matn bilan bevosita ishlash jarayonida qo‘llanadigan usullarni o‘z ichiga oladi. Bunga matndagi muhim so‘zlarni aniqlash, asosiy mazmunni topish, kerakli ma’lumotlarni ajratib olish va ular o‘rtasidagi sabab-natija yoki qarama-qarshilik kabi munosabatlarni aniqlash kiradi. Metakognitiv strategiya esa o‘quvchining o‘z o‘qish jarayonini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi bilan bog‘liq. Bunda o‘quvchi matnni nima maqsadda o‘qiyotganini aniqlaydi, o‘qishdan oldin o‘ziga mos usulni belgilaydi va o‘qish davomida matnni qanchalik tushunganini nazorat qiladi. Agar matnning ayrim qismlari tushunarsiz bo‘lsa, ularni qayta o‘qish yoki kontekst asosida ma’nosini aniqlash orqali o‘z tushunishini tekshiradi.

TOPIK II o‘qish topshiriqlarini bajarishda kognitiv va metakognitiv strategiyalar bir-birini to‘ldiradi. Kognitiv strategiyalar orqali o‘quvchi matnning mazmuni bilan bevosita ishlasa, metakognitiv strategiyalar o‘qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va kerak bo‘lganda o‘qish usulini o‘zgartirishga yordam beradi. Shu sababli TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatishda ushbu ikki strategiyani birgalikda qo‘llash metodik jihatdan muhimdir. TOPIK II o‘qish bo‘limining muhim xususiyatlaridan biri matnlarning nisbatan murakkabligidir. 신정하 (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda TOPIK II o‘qish matnlaridagi lug‘at darajasi koreys tili darsliklaridagi matnlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, matnni tushunishda lug‘at bilan bir qatorda gaplarning grammatik tuzilishini ham to‘g‘ri anglash talab qilinadi. Shu sababli matnni o‘qish jarayonida notanish so‘zlarga duch kelganda darhol to‘xtab qolmasdan, ularning umumiy ma’nosini kontekst asosida aniqlash muhimdir. TOPIK II o‘qish bo‘limida matnlar mazmuni va tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘lib, har bir matn uchun bir xil o‘qish

usulidan foydalanish maqsadga muvofiq emas. 서월아 (2023) TOPIK o‘qish matnlarini axborot, ifoda va hissiy mazmundagi matnlar kabi turlarga ajratib, ushbu matnlarning mazmuniy va funksional xususiyatlari turlicha ekanligini ko‘rsatgan. TOPIK II o‘qish topshiriqlarida reklama, e’lon, tushuntirish matnlari, diagrammalar, yangiliklar va hissiy mazmundagi matnlar kabi turli materiallar uchrashi mumkin. Shu sababli o‘quvchi matnning mazmuni va xususiyatiga qarab o‘qish usulini moslashtirishi kerak. Masalan, diagramma berilgan topshiriqlarda sarlavha va raqamli ma’lumotlarga e’tibor berish, reklama yoki e’lonlarda esa asosiy maqsad va muhim talablarni aniqlash muhimdir. Tushuntirish matnlarida asosiy tushuncha va sabab-natija munosabatlarini, yangilik matnlarida esa asosiy voqea va muhim ma’lumotlarni ajratib olishga e’tibor qaratish mumkin.

TOPIK II o‘qish bo‘limida matnlarning turlicha bo‘lishi bilan birga, topshiriq turlari ham xilma-xildir. O‘quvchi markaziy mazmunni aniqlash (중심내용), matnga mos ma’lumotni topish (일치하는 내용), gap yoki paragraflarni mantiqiy tartibga keltirish (순서 배열), bo‘sh joyga kontekstga mos ma’lumotni aniqlash (빈칸), shuningdek, muallifning munosabati yoki maqsadini aniqlash (필자의 태도/의도) kabi turli topshiriqlarni bajarishi kerak. Har bir topshiriq o‘quvchidan matnni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishni talab qiladi. Shu sababli topshiriq turini oldindan aniqlash va unga mos o‘qish strategiyasini tanlash TOPIK II o‘qish ta’limida muhim metodik masalalardan biridir. Demak, TOPIK II o‘qish topshiriqlarining murakkabligi, matnlarning xilma-xilligi va topshiriq turlarining turlicha ekanligi o‘quvchidan matn va topshiriq xususiyatiga mos o‘qish strategiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi bo‘limda TOPIK II o‘qish topshiriqlarini bajarish va o‘rgatish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘qish strategiyalari bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi.

NATIJALAR

O‘qishdan oldingi tayyorgarlik bosqichi matnni tushunishga yo‘naltirilgan dastlabki faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda o‘quvchi avvalo matnning sarlavhasiga e’tibor berib, uning mavzusini taxmin qiladi, oldingi bilimlarini esga oladi va matnda qanday ma’lumotlar bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, o‘qish maqsadini belgilaydi. Agar matn bilan birga rasm, jadval yoki diagramma berilgan bo‘lsa, o‘quvchi ularga ham oldindan e’tibor berib, matnning mavzusi va mazmuni haqida dastlabki taxmin hosil qilishi mumkin.

TOPIK II o‘qish topshiriqlarida bunday tayyorgarlik o‘quvchiga matnni maqsadli o‘qishni boshlash uchun yo‘nalish beradi. Masalan, matnning sarlavhasi va dastlabki ma’lumotlariga e’tibor berish orqali o‘quvchi matn mavzusini oldindan taxmin qilishi mumkin. Diagramma yoki jadval berilgan topshiriqlarda esa avval uning sarlavhasi va asosiy ma’lumotlariga qarash matnni tushunish uchun kerakli yo‘nalishni belgilashga yordam beradi. Shu orqali o‘quvchi matnni maqsadsiz o‘qimasdan, o‘qish maqsadiga muvofiq kerakli ma’lumotlarga e’tibor qaratgan holda o‘qishni boshlaydi. Bu kabi o‘qishdan oldingi faoliyatlar o‘quvchining mavjud bilimlarini faollashtirish va matnga kirish yo‘nalishini belgilashga yordam beradi (이양혜,

2010). Matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi barcha so‘z va gaplarni bir xil darajada tahlil qilishga harakat qilmasdan, matnning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradigan muhim ma’lumotlarga e’tibor qaratishi kerak. Masalan, matndagi muhim so‘zlarni aniqlash, bog‘lovchilarga e’tibor berish, sabab-natija yoki qarama-qarshilik munosabatlarini aniqlash hamda kerakli ma’lumotlarni ajratib olish muhimdir. TOPIK II matnlarida murakkab gap tuzilmalari uchrashi mumkinligi sababli, o‘quvchi gapning barcha qismini bir vaqtning o‘zida tahlil qilishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun, avvalo, gapdagi asosiy mazmunni aniqlash, bog‘lovchilar va asosiy predikativ birliklarga e’tibor berish orqali gaplar o‘rtasidagi munosabatni tushunishga harakat qilish mumkin. Shuningdek, notanish yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni asosiy mazmundan ajratib olish matnni umumiy mazmun asosida tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, matnni o‘qish jarayonida bog‘lovchilarga e’tibor berish muhimdir. Masalan, 그러나, 반면에 kabi bog‘lovchilar qarama-qarshilikni, 따라서, 그러므로 kabi bog‘lovchilar esa sabab-natija yoki xulosani bildiradi. Bunday bog‘lovchilarga e’tibor berish gaplar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatni aniqlashga yordam beradi. Matnni o‘qish jarayonida oldingi ma’lumotga ishora qiluvchi ifodalarga ham e’tibor berish kerak. Masalan, 이러한, 이와 같은, 앞에서 말한 kabi ifodalar oldingi gap yoki fikrga ishora qilishi mumkin. O‘quvchi bunday ifodalarning nimaga tegishli ekanligini aniqlasa, matndagi fikrlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshiroq tushunishi mumkin. TOPIK II o‘qish matnlarida bunday 조응 표현larning qo‘llanishini tushunish matn qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam berishi mumkin (유인박, 2021). Shuningdek, o‘quvchi matnni o‘qish jarayonida o‘zining tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Agar biror qism tushunarsiz bo‘lsa, uni qayta o‘qishi yoki kontekstdan ma’nosini aniqlashi mumkin. Biroq matnning barcha qismlarini qayta o‘qish shart emas, balki faqat tushunarsiz yoki muhim qismlarga qaytib, vaqtni hisobga olgan holda topshiriqni bajarishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

TOPIK II o‘qish bo‘limidagi 중심내용, ya’ni asosiy mazmunni aniqlash topshirig‘ida o‘quvchi matndagi asosiy fikrni topishi kerak. Bunda barcha gaplarni bir xil darajada tahlil qilish o‘rniga, matnda takrorlanadigan yoki mazmun jihatidan muhim bo‘lgan so‘z va fikrlarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, matnning kirish va yakuniy qismlari asosiy mazmunni aniqlashda yordam berishi mumkin. Yakunda javob variantlarini matnning umumiy mazmuni bilan solishtirish orqali mos javobni aniqlash mumkin. 일치하는 내용 topshirig‘ida o‘quvchi matnda berilgan ma’lumotga mos keladigan javobni topishi kerak. Bunda avvalo savolda nima haqida ma’lumot so‘ralayotganini aniqlab, matndan shu ma’lumotga tegishli kalit so‘zlarni izlash mumkin. Keyin topilgan ma’lumotni javob variantlari bilan solishtirib, matn mazmuniga mos keladigan javobni tanlash lozim. Bunda javob variantidagi alohida so‘zning mos kelishiga emas, balki butun gapning matndagi ma’lumot bilan mazmunan mos kelishiga e’tibor berish muhimdir.

TOPIK II o‘qish bo‘limidagi 순서 배열 topshirig‘ida o‘quvchi berilgan gap yoki paragraflarning mantiqiy ketma-ketligini aniqlashi kerak. Bunda avval berilgan gap yoki paragrafning asosiy mazmunini aniqlash keyingi gapni topishga yordam beradi. Shuningdek, 그러나, 따라서, 또한 kabi bog‘lovchilarga hamda 이것, 이러한, 이와 같은 kabi ifodalarga e’tibor berib, ularning nimaga ishora qilayotganini aniqlash muhimdir. Bundan tashqari, sabab-natija, umumiy fikr-misol kabi mantiqiy ketma-ketliklarni tekshirib, paragraflarni to‘g‘ri tartibga keltirish mumkin. 빈칸 topshirig‘ida o‘quvchi matndagi bo‘sh joyga mazmunan mos keladigan javobni topishi kerak. Bunda bo‘sh joydan oldingi va keyingi gaplarni o‘qib, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishga e’tibor qaratish muhimdir. Shuningdek, javob variantlarini tanlashda bo‘sh joyning oldingi va keyingi mazmun bilan qanday bog‘lanishini tekshirish zarur. 필자의 태도/의도 topshirig‘ida o‘quvchi muallifning matnga bo‘lgan munosabati yoki yozishdan maqsadini aniqlashi kerak. Bunda avvalo muallif nimani aytmoqchi ekanligini aniqlash va uning ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatiga e’tibor qaratish muhimdir. Shuningdek, 하지만, 그러나, 문제는 kabi ifodalarga e’tibor berish muallifning fikri va munosabatini tushunishga yordam berishi mumkin. Matnning yakuniy qismiga e’tibor qaratish ham muallifning asosiy maqsadini aniqlashga yordam beradi. TOPIK II o‘qish topshiriqlarini bajarishda javobni belgilashdan oldin uni tekshirish ham muhimdir. O‘quvchi tanlagan javobini matn bilan solishtirib, ushbu javobni tasdiqlovchi ma’lumot matnda mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak. Javob variantlari o‘rtasida ikkilanish yuzaga kelganda, savol talabiga qaytib, matndagi kerakli ma’lumotni yana bir bor tekshirishi mumkin. Bunda vaqtni hisobga olgan holda, barcha savollarni qayta ko‘rib chiqish o‘rniga faqat shubhali yoki muhim savollarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA

Yuqorida ko‘rib chiqilgan o‘qish strategiyalaridan kelib chiqib, TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatish uchun bosqichma-bosqich metodik model taklif qilinadi. Ushbu model o‘qish jarayonini to‘rt bosqichga ajratib, har bir bosqichda unga mos strategiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Modelning asosiy maqsadi o‘quvchiga matnni maqsadli va tartibli o‘qish, topshiriq talabini aniqlash hamda javobni tekshirish jarayonini izchil tashkil etish uchun metodik yo‘nalish berishdan iborat. Model o‘qishdan oldingi tayyorgarlikdan boshlanib, matnni o‘qish, topshiriqni bajarish va javobni tekshirish bosqichlari orqali yakunlanadi.

Birinchi bosqich o‘qishdan oldingi tayyorgarlikdan iborat. Bu bosqichda o‘quvchi avvalo matnning sarlavhasiga e’tibor beradi. Agar matn bilan birga rasm, jadval yoki diagramma berilgan bo‘lsa, ulardan ham foydalanadi. Shuningdek, matn mavzusini taxmin qiladi va o‘qish maqsadini belgilaydi. O‘qituvchi bu bosqichda o‘quvchiga matnni darhol to‘liq o‘qitishdan oldin sarlavha, rasm yoki boshqa dastlabki ma’lumotlar asosida matn mavzusini taxmin qilishga yo‘naltiruvchi savollar berishi mumkin.

Ikkinchi bosqich matnni o‘qish jarayonidan iborat. Bu bosqichda o‘quvchi muhim so‘zlarni aniqlaydi, bog‘lovchilarga e’tibor beradi hamda sabab-natija yoki qarama-qarshilik

kabi munosabatlarni aniqlaydi. Shuningdek, 이러한, 이와 같은 kabi ifodalarning nimaga ishora qilayotganini tushunishga va uzun gaplarda asosiy mazmunni ajratib olishga harakat qiladi. O‘qituvchi esa matnni o‘qish jarayonida barcha so‘zlarni alohida-alohida tarjima qilishga emas, balki muhim ma’lumotlarni ajratib olish va gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni aniqlashga yo‘naltirishi mumkin.

Uchinchi bosqich topshiriq turiga mos strategiyani tanlashdan iborat. Bu bosqichda o‘quvchi avvalo topshiriq turini aniqlab, unga mos strategiyadan foydalanadi. Masalan, 중심내용 topshirig‘ida matnning asosiy mazmunini aniqlashga, 일치하는 내용 topshirig‘ida matndan aniq ma’lumotni topib, uni javob varianti bilan solishtirishga, 순서 배열 topshirig‘ida esa gap yoki paragraflarning mantiqiy ketma-ketligini aniqlashga e’tibor qaratadi. 빈칸 topshirig‘ida bo‘sh joydan oldingi va keyingi gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni tekshiradi, 필자의 태도/의도 topshirig‘ida esa muallifning munosabati yoki maqsadini aniqlashga harakat qiladi. O‘qituvchi bu bosqichda topshiriq turini aniqlash va unga mos strategiyani tanlash jarayonini izchil ko‘rsatib berishi mumkin.

To‘rtinchi bosqich javobni tekshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilishdan iborat. Bu bosqichda o‘quvchi tanlagan javobini yana bir bor matndagi ma’lumot bilan solishtiradi va javobini tasdiqlovchi dalil borligiga ishonch hosil qiladi. Agar javob variantlari o‘rtasida ikkilanish bo‘lsa, savol talabiga qaytib, matndagi kerakli ma’lumotni qayta tekshiradi. Bunda vaqtni hisobga olib, barcha savollarni qayta ko‘rib chiqish o‘rniga faqat shubhali yoki muhim savollarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi bu bosqichda o‘quvchini javobni shunchaki belgilash bilan cheklanmasdan, uni matndagi dalil bilan asoslashga yo‘naltirishi mumkin.

XULOSA

Ushbu maqolada TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatishda o‘qish strategiyalaridan foydalanish masalasi ko‘rib chiqildi. TOPIK II o‘qish bo‘limidagi matnlarning nisbatan murakkabligi, matnlarning mazmun va tuzilish jihatidan xilma-xilligi hamda topshiriq turlarining turlicha ekanligi o‘quvchidan matn va topshiriq xususiyatiga mos o‘qish strategiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish strategiyalarini o‘qishdan oldingi tayyorgarlik, matnni o‘qish jarayoni, topshiriq turiga mos strategiyani tanlash va javobni tekshirish bosqichlari asosida tizimlashtirish mumkin. O‘qish jarayonida muhim so‘zlarni aniqlash, bog‘lovchilarga e’tibor berish, sabab-natija va qarama-qarshilik munosabatlarini tushunish hamda oldingi ma’lumotga ishora qiluvchi ifodalarni aniqlash kabi strategiyalar matnni maqsadli o‘qishga yo‘naltirilgan metodik vositalar sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, 중심내용, 일치하는 내용, 순서 배열, 빈칸 va 필자의 태도/의도 kabi topshiriqlarda topshiriq turiga mos strategiyani tanlash va tanlangan javobni matn mazmuni bilan tekshirish muhim metodik jarayon sifatida belgilanadi. Shu asosda maqolada TOPIK II o‘qish topshiriqlarini o‘rgatish uchun to‘rt bosqichli metodik model taklif qilindi. Ushbu model

o‘qishdan oldingi tayyorgarlik, matnni o‘qish, topshiriq turiga mos strategiyani tanlash hamda javobni tekshirish bosqichlarini izchil bog‘laydi. Mazkur model TOPIK II o‘qish ta’limida o‘qish strategiyalaridan bosqichma-bosqich foydalanishni tashkil etish uchun amaliy metodik yo‘nalish sifatida qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 백재파. (2017). 한국어 읽기 전략 교수의 효과에 대한 메타분석. 이중언어학, 67, 161-191. https://doi.org/10.17296/korbil.2017..67.161

2. 신정하. (2016). 한국어능력시험(TOPIK) 읽기 텍스트의 난이도 연구 - TOPIKII의 읽기 영역을 중심으로 -. 이중언어학, 62, 29-48. https://doi.org/10.17296/korbil.2016..62.29

3. 서월아. (2023). 개편 후 TOPIK 읽기 텍스트에 대한 분석 및 학습 전략 연구. 한국지식정보기술학회 논문지, 18(6), 1809-1818. https://doi.org/10.34163/jkits.2023.18.6.037

4. 임채훈. (2019). 읽기 평가를 위한 ‘중심내용 찾기’ 문항의 선택지 구성에 대한 연구-텍스트 유형을 변인으로 한 ‘<한국어능력시험(TOPIK)>II읽기’ 분석을 중심으로-. 이중언어학, 76, 137-162. https://doi.org/10.17296/korbil.2019..76.137

5. 이양혜. (2010). 한국어 읽기 교재 단원 속의 스키마 활성화 전략 연구. *우리말연구*, 26, 267-292.

6. 유인박. (2021). 한국어능력시험 읽기 텍스트의 조응 표현 연구. 인문사회 21, 12(3), 171-184.